

KORXONA XAVFSIZLIK MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI VA HUDUDIIY IQTISODIIY XAVFSIZLIK KONSEPSIYASI

Xalilov Nurullo Xamidillayevich

“University of economics and pedagogy” NOTM

“Iqtisodiyot” kafedrası professori

E-mail: xalilovnurullo@mail.ru

Tel.: +998 91 291 46 46

Annotatsiya. Mazkur tezisdá korxona xavfsizlik mexanizmini shakllantirishning metodologik tamoyillari hamda hududiiy iqtisodiiy xavfsizlik bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda tizimlilik, moslashuvchanlik, ko‘p qatlamlilik, bosqichlilik, teng vaznlash va hududiiy kontekstga bog‘lash tamoyillari asoslandi. Rasmiy statistika va xalqaro metodologiyalar qiyosiiy o‘rganilib, korxona xavfsizligini baholash, monitoringni takomillashtirish va boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiluvchi yondashuv ishlab chiqildi. Natijalar korxona hamda hudud darajasidagi iqtisodiiy barqarorlikni uyg‘un boshqarish imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv amaliy baholashning izchilligini ham kuchaytirgan.

Kalit so‘zlar: korxona xavfsizligi, iqtisodiiy xavfsizlik, hududiiy rivojlanish, monitoring, moslashuvchanlik, tizimlilik, boshqaruv qarori, indikatorlar.

Аннотация. В тезисе были научно проанализированы методологические принципы формирования механизма безопасности предприятия и его взаимосвязь с региональной экономической безопасностью. Были обоснованы принципы системности, адаптивности, многоуровневости, поэтапности, равного взвешивания и учета регионального контекста. На основе официальной статистики и международных методологий был разработан подход к оценке безопасности предприятий, совершенствованию мониторинга и обоснованию управленческих решений. Полученные результаты показали возможности согласованного управления экономической устойчивостью предприятия и региона. Предложенный подход также повысил последовательность оценки и практическую применимость разработанного механизма.

Ключевые слова: безопасность предприятия, экономическая безопасность, региональное развитие, мониторинг, адаптивность, системность, управленческие решения, индикаторы.

Abstract. This thesis scientifically analyzed the methodological principles of forming an enterprise security mechanism and its relationship with regional economic security. The study substantiated systemic integrity, adaptability, multi-layered assessment, phased evaluation, equal weighting, and regional contextualization. Official statistics and international methodologies were comparatively examined to develop an approach for assessing enterprise security, improving monitoring, and supporting managerial decisions. The findings

demonstrated opportunities for coordinated management of economic stability at both enterprise and regional levels.

Keywords: enterprise security, economic security, regional development, monitoring, adaptability, systemic approach, managerial decisions, indicators.

Kirish. Korxona iqtisodiy xavfsizligi nazariy kategoriya sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektning tashqi va ichki tahdidlar mavjud sharoitda o‘z manfaatlarini himoya qilish, uzluksiz faoliyat yuritish va rivojlanish salohiyatini saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kategoriya risk tushunchasidan kengroq mazmunga ega: risk alohida noqulay hodisaning yuzaga kelish ehtimolini o‘lchasa, xavfsizlik korxonaning butun faoliyat tizimi barqarorligini tavsiflaydi. Nazariy jihatdan xavfsizlik holat sifatida ham, jarayon sifatida ham talqin qilinadi: holat sifatida u ma’lum vaqt kesimidagi himoyalanganlik darajasini, jarayon sifatida esa ushbu darajani saqlashga qaratilgan boshqaruv harakatlarining ketma-ketligini anglatadi. Mexanizm tushunchasi aynan ikkinchi talqinga tayanadi va maqsad, tamoyil, indikator, monitoring hamda boshqaruv qarori unsurlarining o‘zaro bog‘langan majmuini bildiradi.

Hududiy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi ushbu mantiqning mezodarajadagi davomi hisoblanadi. Hudud xavfsizligi mustaqil ravishda emas, balki unda faoliyat yurituvchi korxonalar tizimining barqarorligi orqali shakllanadi: ishlab chiqarish quvvatlarining uzluksizligi, bandlik darajasining saqlanishi va soliq tushumlarining muntazamligi hududiy byudjetning va ijtimoiy majburiyatlarning bajarilishini ta’minlaydi. Teskari yo‘nalishda hududiy infratuzilma, energiya ta’minoti va ma’muriy xizmatlarning ishonchliligi korxona uchun tashqi xavfsizlik konturi vazifasini o‘taydi. Ikki daraja o‘rtasidagi bog‘liqlik xavfsizlik mexanizmini loyihalashda hududiy omillarni tashqi parametr sifatida hisobga olishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini barqarorlashtirish va hududiy taraqqiyotni jadallashtirish yo‘nalishidagi vazifalar strategik hujjatlarda aniq belgilangan [1], ularning yangilangan tahriri va ijro monitoringi tartibi keyingi farmon bilan mustahkamlandi [2]. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil 1-noyabr holatida respublikada 465,9 mingta korxona va tashkilot faoliyat yuritgan, ularning 84,9 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan [3]. Korxonalar tarkibidagi bunday nisbat xavfsizlik mexanizmining sodda, kam xarajatli va standartlashtirilgan bo‘lishini oldindan belgilaydi. Maqolaning maqsadi korxona xavfsizlik mexanizmini shakllantirishning metodologik tamoyillarini asoslash va ularni hududiy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda korxona iqtisodiy xavfsizligini boshqarishning moslashuvchan yo‘nalishi yetakchi o‘rin egallaydi. Xavfsizlik tizimi tashqi muhit o‘zgarishlariga javoban o‘z parametrlarini qayta sozlash qobiliyatiga ega dinamik tuzilma sifatida qaraladi, uning samaradorligi esa moslashuv tezligi va boshqaruv qarorining o‘z vaqtida qabul qilinishi bilan o‘lchanadi [4]. Bunday yondashuv xavfsizlikni bir marta o‘rnatiladigan himoya konturi emas, balki muntazam yangilanadigan boshqaruv jarayoni sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida xavfsizlik tuzilmasining ko‘p qatlamliligi alohida asoslangan: moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot va ekologik quyi darajalar ajratilib, ular yagona boshqaruv konturida birlashtiriladi hamda sug‘urta, prognozlash va modellash vositalari bilan mustahkamlanadi [5]. Baholash jarayonining tashkiliy tomoni bosqichli tartibda ifodalanadi: joriy darajani operativ aniqlash, uni me‘yoriy qiymatlar bilan solishtirish va boshqaruv ta‘sirini shakllantirish bosqichlari ajratiladi [6]. Ushbu ikki manba birgalikda mexanizmning ham tuzilmaviy, ham jarayoniy o‘lchovini qamrab oladi.

Metodologik yechimlarni boyitish uchun xalqaro baholash amaliyoti qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi. Jahon bankining ramkasi huquqiy normalar bilan ularning amaliy ijrosi o‘rtasidagi farqni alohida o‘lchash tamoyilini ilgari suradi va korxona hayot siklining o‘nta bosqichini qamrab oladi [7]. IMD metodologiyasida yigirmata quyi omilning har biriga teng vazn berilishi kompozit bahoni shaffof qiladi [8]. Hududiy raqobatbardoshlik indeksi esa korxona uchun tashqi muhit sifatini oltmish sakkizta indikator orqali ifodalash mumkinligini ko‘rsatadi [9]. Manbalarning qiyosiy o‘rganilishi xavfsizlik bo‘yicha tadqiqotlar korxonaning ichki barqarorligiga, baholash ramkalari esa muhit sifatiga yo‘naltirilganini, ularni bog‘lovchi yagona tamoyillar tizimi esa hozircha to‘liq shakllantirilmaganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tamoyillarni ajratib olish va ularni tizimlashtirishning nazariy usuliga tayanadi. Har bir tamoyil uchta talab bo‘yicha tekshirildi: u ochiq manbada asoslanganmi, korxona darajasidagi aniq indikatorga dekompozitsiya qilinadimi va kichik korxona uchun ham qo‘llanilishi mumkinmi. Ushbu talablardan kamida ikkitasiga javob bermagan qoidalar tamoyillar ro‘yxatiga kiritilmadi.

Ma‘lumot bazasi faqat rasmiy va ochiq manbalardan tashkil topdi: normativ hujjatlar milliy qonunchilik bazasidan [2], korxonalar tarkibi bo‘yicha ko‘rsatkichlar Milliy statistika qo‘mitasi nashrlaridan [3], metodologik yondashuvlar esa retsenziyalanadigan ilmiy jurnallar va xalqaro tashkilotlarning hujjatlaridan olindi [4]. Baholash natijalari nazariy xarakterga ega bo‘lib, ularning miqdoriy tekshiruvi alohida empirik tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Manbalarning tizimli o‘rganilishi asosida korxona xavfsizlik mexanizmini shakllantirishning yettita metodologik tamoyili ajratildi. Ularning mazmuni va ilmiy asosi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Korxona xavfsizlik mexanizmini shakllantirishning metodologik tamoyillari¹²⁹

Tamoyil	Mazmuni	Metodologik asosi (manba)
Tizimlilik	Xavfsizlik barcha funksional bloklarni qamrab olgan yaxlit tuzilma sifatida loyihalanadi	Moslashuvchan boshqaruv nazariyasi [4]


¹²⁹ Manba: [4], [5], [6], [7], [8] va [9] manbalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tamoyil	Mazmuni	Metodologik asosi (manba)
Moslashuvchanlik	Tashqi o'zgarishga javoban mexanizm parametrlari qayta sozlanadi	Moslashuvchan boshqaruv nazariyasi [4]
Ko'p qatlamlilik	Moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot va ekologik quyi darajalar ajratiladi	Raqamli transformatsiya tadqiqoti [5]
Bosqichlilik	Diagnostika, kuzatuv va boshqaruv qarori bosqichlari ketma-ket bajariladi	Bosqichli baholash yondashuvi [6]
Norma va ijro farqini o'lchash	Reglamentning rasmiy mavjudligi hamda amaldagi bajarilishi alohida baholanadi	B-READY ramkasi [7]
Teng vaznlash	Kompozit bahoda barcha bloklarga bir xil vazn beriladi	IMD metodologiyasi [8]
Hududiy kontekstga bog'lash	Tashqi muhit sifati indikatorlari baholash tarkibiga kiritiladi	Hududiy raqobatbardoshlik indeksi [9]

Tamoyillar tizimi bir necha muhim xulosani berdi. Birinchidan, tizimlilik va moslashuvchanlik tamoyillari birgalikda qo'llanilgandagina mexanizm samarali ishlaydi: faqat tizimlilikka tayangan model tashqi o'zgarishlarga kech javob beradi, faqat moslashuvchanlikka tayangan model esa yaxlit nazoratni yo'qotadi [4]. Ikkinchidan, ko'p qatlamli tuzilma xavfsizlikni yagona umumlashgan baho bilan emas, balki mustaqil bloklar kesimida o'lchash imkonini beradi va zaif bo'g'inni aniq ko'rsatadi [5]. Uchinchidan, bosqichlilik tamoyili baholashni bir martalik tadbirdan uzluksiz boshqaruv jarayoniga aylantiradi [6].

To'rtinchidan, huquqiy norma bilan amaldagi ijro o'rtasidagi farqni alohida qayd etish tamoyili korxona ichki reglamentlarining rasman mavjud bo'lgani holda bajarilmasligi holatini ochib beradi va mexanizmning eng nozik nuqtasini nazoratga oladi [7]. Beshinchidan, bloklarga teng vazn berish kompozit bahoni subyektiv ta'sirdan himoya qiladi [8]. Oltinchidan, tashqi muhit indikatorlarini baholashga kiritish korxona xavfsizligini hududiy sharoit bilan bog'laydi va hududiy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasiga uzviy o'tish ko'prigini yaratadi [9]. Yettinchidan, korxonalarning aksariyati kichik biznes hissasiga to'g'ri kelishi [3] va qo'shilgan qiymatning 49,4 foizi xizmatlar sohasida yaratilishi [10] mexanizm indikatorlari sonini cheklash hamda ularni raqamli hisobot tizimlaridan avtomatik olish zaruratini ko'rsatadi.

Ajratilgan tamoyillar asosida mexanizmning bosqichli sxemasi shakllantirildi. Sxemada tahdidlarni aniqlashdan boshlangan harakat diagnostika va monitoring bosqichlari orqali boshqaruv qaroriga olib keladi, qaror natijasi esa teskari aloqa kanali bo'ylab dastlabki bosqichga qaytadi va siklning uzluksizligini ta'minlaydi (1-rasm).



Xulosa. Nazariy umumlashtirish korxona xavfsizlik mexanizmi va hududiy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi yagona metodologik mantiqqa asoslanishini tasdiqladi: ikkala darajada ham himoyalanganlik holati indikatorlar tizimi, uzluksiz kuzatuv va o'z vaqtida qabul qilingan boshqaruv qarori orqali ta'minlanadi.

Amaliy yo'nalishda quyidagi takliflar shakllantirildi. Birinchidan, korxonada xavfsizlikning beshta blokini - moliyaviy, ishlab chiqarish-texnologik, kadrlar, axborot va bozor bloklarini - ajratib, har biriga teng vazn beruvchi kompozit baholash tartibini joriy etish maqsadga muvofiq [8]. Ikkinchidan, har bir blok bo'yicha me'yoriy chegara qiymatlari belgilanib, ulardan chetlanish boshqaruv qarorining avtomatik asosiga aylantirilishi lozim [6]. Uchinchidan, ichki reglamentlarning mavjudligi va ularning amaldagi bajarilishi alohida-alohida qayd etiladigan ikki qatlamli monitoring joriy etilsa, mexanizmning ishonchliligi sezilarli oshadi [7].

To'rtinchidan, baholash tarkibiga hududiy muhitni ifodalovchi tashqi indikatorlar - energiya ta'minotining uzluksizligi, logistika imkoniyati va ma'muriy jarayonlar tezligi - kiritilishi korxona bahosini real sharoitga bog'laydi [9]. Beshinchidan, kichik korxonalar uchun cheklangan sonli indikatorga tayanuvchi soddalashtirilgan variant ishlab chiqilib, u raqamli hisobot tizimlari bilan integratsiyalanadi [5]. Oltinchidan, korxona darajasidagi natijalarni hududiy dasturlar monitoringi bilan uyg'unlashtirish hududiy iqtisodiy xavfsizlik holatini baholashning ishonchli axborot bazasini yaratadi [1]. Takliflar keyingi empirik tekshiruvlar uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2026-yil PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari

¹³⁰ Manba: [4], [6] va [7] manbalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Korxona va tashkilotlar demografiyasi: 2025-yil 1-noyabr holatiga matbuot relizi. URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/registr-press-reliz-01_11_25-uz-lotin_p57829.pdf

4. Tytykalo V., Kovalenko N., Pohrebniak A., Nahorna I., Kalyniuk V. Assessment of Adaptive Management of Economic Security of Enterprises in the Context of Globalization Challenges and Sustainable Development // International Journal of Sustainable Development and Planning. 2023. Vol. 18, No. 4. URL: <https://www.iieta.org/journals/ijsdp/paper/10.18280/ijsdp.180432>

5. Harahulia A., Suslov V., Horovoy O. Management of Economic Security of Enterprises in the Context of Digital Transformation // Baltic Journal of Economic Studies. 2023. Vol. 9, No. 5. P. 87-93. URL: <https://doi.org/10.30525/2256-0742/2023-9-5-87-93>

6. Sopilko N. Yu., Kubasova E. I. Approaches to the Integrated System Formation for the Economic Security Managing on Enterprise // RSUH/RGGU Bulletin. Series Economics. Management. Law. 2024. No. 1. P. 102-110. URL: <https://economics.rsuh.ru/jour/article/viewFile/547/421>

7. World Bank. Business Ready (B-READY) Methodology Handbook. Washington, DC, 2024. URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/357a611e3406288528cb1e05b3c7dfda-0540012023/original/B-READY-Methodology-Handbook.pdf>

8. IMD World Competitiveness Center. World Competitiveness Ranking: Methodology. URL: <https://www.imd.org/centers/wcc/world-competitiveness-center/rankings/world-competitiveness-ranking/methodology/>

9. Dijkstra L., Papadimitriou E., Cabeza Martinez B., De Dominicis L., Kovacic M. EU Regional Competitiveness Index 2.0 - 2022 edition. European Commission Working Paper, 2023. URL: https://ec.europa.eu/regional_policy/sources/work/rci_2022/eu-rci2_0-2022_en.pdf

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Yalpi ichki mahsulot: 2025-yil yanvar-sentabr yakunlari bo‘yicha analitik ma’lumot. URL: https://stat.uz/img/press-relizlar/analitika-vvp_zb-lotin_p95454.pdf